



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

O‘ZBEK VA INGLIZ MATBUOT DISKURSIDA QO‘LLANILGAN YURIDIK TERMINLARNING PRESUPPOZITSION VA IMPLIKATURA XUSUSIYATLARI

Usmonova Oyshajon Rozmatovna

Toshkent davlat yuridik universiteti, v.b.dotsent

Annotatsiya

Zamonaviy pragmalinqvistika va diskurs tahlilida yuridik terminlarning kommunikativ imkoniyatlarini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Matbuot diskursida qo‘llaniladigan huquqiy terminlar nafaqat axborot uzatish vositasi, balki yashirin ma’no, oldindan qabul qilingan bilimlar va kontekstual xulosalarni shakllantiruvchi pragmatik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz gazeta matnlarida qo‘llanilgan yuridik terminlarning presuppozitsion va implikatura xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pragmatik, diskursiv va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek matbuotida yuridik terminlar asosan presuppozitsiyaga tayangan holda qo‘llanilib, o‘quvchining huquqiy fon bilimiga tayanadi, ingliz matbuotida esa implikatura orqali baholovchi va tanqidiy ma’no ustunlik qiladi. Ushbu farq milliy jurnalistika an‘analari va huquqiy diskursning ijtimoiy funksiyasi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: yuridik terminlar, presuppozitsiya, implikatura, matbuot diskursi, pragmatika, huquqiy til

ПРЕСУППОЗИЦИОННЫЕ И ИМПЛИКАТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЗУЕМЫХ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ МЕДИАДИСКУРСЕ

Усмонова Ойшажон Розматовна

Ташкентский государственный юридический университет, и.о. доцента

Аннотация

Исследование юридической терминологии в газетном дискурсе является актуальным направлением современной прагмалингвистики и теории дискурса. Юридические термины в публицистических текстах выполняют не только информативную функцию, но и формируют скрытые смыслы, фоновые знания и прагматические выводы. Цель данной работы - сравнительный анализ presuppositional и implicature особенностей юридических терминов в узбекском и английском газетном дискурсе. В исследовании применялись прагматический, дискурсивный и сравнительно-аналитический методы. Результаты показывают, что в узбекской прессе доминирует presupposition, основанная на нормативных правовых знаниях читателя, тогда как в английской прессе более активно реализуется implicature, передающая оценочные и критические оттенки значения. Выявленные различия обусловлены особенностями национальных журналистских традиций и коммуникативной роли правового дискурса.

Ключевые слова: юридические термины, presupposition, implicature, газетный дискурс, прагматика

PRESUPPOSITIONAL AND IMPLICATURE FEATURES OF LEGAL TERMS USED IN UZBEK AND ENGLISH MEDIA DISCOURSE

Usmonova Oyshajon Rozmatovna

Tashkent State University of Law, Acting Associate Professor

Abstract

The study of legal terminology within press discourse represents an important direction in contemporary pragmatics and discourse analysis. Legal terms used in newspapers function not only as carriers of legal information but also as pragmatic units that generate hidden meanings, background assumptions, and contextual inferences. This research aims to conduct a comparative analysis of presuppositional and implicature-related features of legal terms in Uzbek and English press discourse. Pragmatic, discourse-based, and comparative analytical methods were applied in the study. The findings demonstrate that Uzbek press discourse primarily relies on presupposition, activating readers' background legal knowledge, whereas English legal journalism more actively employs implicature to convey evaluative and critical meanings. These differences reflect national journalistic traditions and the socio-communicative role of legal discourse in each linguistic environment.

Keywords: legal terminology, presupposition, implicature, press discourse, pragmatics

Zamonaviy lingvistika doirasida diskurs tahlili va pragmalingvistika muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, ommaviy axborot vositalari diskursida til birliklari nafaqat axborot yetkazish, balki yashirin ma'no, baholash va ijtimoiy pozitsiyani ifodalash vazifasini ham bajaradi. Bu jarayonda yuridik terminlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular huquqiy bilimga tayangan holda presuppozitsion va implikatura ma'nolarni shakllantiradi. Presuppozitsiya nutq jarayonida so'zlovchi va tinglovchi tomonidan oldindan ma'lum deb qabul qilinadigan bilimlar majmuini anglatadi. Yuridik terminlar qo'llanilganda, muallif o'quvchining huquqiy savodxonligiga tayanadi. Masalan, "javobgarlikka tortildi" birikmasi jinoyat sodir etilgani haqidagi presuppozitsiyani o'z ichiga oladi. Implikatura esa bevosita aytilmagan, biroq kontekstdan kelib chiqib anglashiladigan ma'nodir. O'zbek va ingliz matbuoti huquqiy axborotni berishda turli pragmatik strategiyalardan foydalanadi. Shu bois ularni qiyosiy o'rganish dolzarbdir. Tadqiqotning maqsadi - o'zbek va ingliz matbuot diskursida yuridik terminlar orqali presuppozitsiya va implikatura qanday yuzaga kelishini aniqlashdan iborat.

Presuppozitsiya va implikatura masalalari zamonaviy pragmalingvistikaning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, ularning shakllanishi XX asr falsafiy mantiqi va til falsafasi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tushunchalar ayniqsa yuridik diskursni, jumladan, matbuotda qo'llaniladigan yuridik terminlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki huquqiy terminlar ko'pincha ochiq aytilmagan, ammo kontekst orqali anglashiladigan ma'nolarni faollashtiradi. Presuppozitsiya tushunchasining dastlabki nazariy asoslari nemis faylasufi Gottlob Frege ishlari bilan bog'liq. Frege til birliklari ma'nosining faqat aytilgan axborot bilan cheklanmasligini, balki gap to'g'ri yoki noto'g'ri baholanishi uchun zarur bo'lgan fon bilimlariga tayanganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ayrim iboralar o'z-o'zidan ma'lum deb qabul qilinadigan axborotni talab qiladi, bu esa presuppozitsiyaning falsafiy mohiyatini belgilaydi. Keyingi bosqichda presuppozitsiya tushunchasi ingliz faylasufi P. F. Strawson tomonidan rivojlantirildi. Strawson presuppozitsiyani gapning mantiqiy sharti sifatida emas, balki nutqiy vaziyatga bog'liq pragmatik hodisa sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, presuppozitsiya so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida mavjud bo'lgan umumiy bilimlar majmuasiga tayanadi va bu holat ayniqsa institutsional diskurslarda, jumladan, huquqiy matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Implikatura nazariyasi esa H. P. Grice nomi bilan bevosita bog'liq. Grice til birliklari orqali yetkaziladigan ma'no ikki qatlamdan iborat ekanini ko'rsatadi: aytilgan (what is said) va nazarda tutilgan (what is implicated). Uning "kooperativ prinsip" va "maksimalar" nazariyasi implikaturaning qanday shakllanishini izohlab beradi. Grice ta'kidlaganidek, nutqda aytilmagan, ammo kontekst asosida anglashiladigan ma'no implikatura hisoblanadi va bu holat matbuot diskursida yuridik terminlar orqali tez-tez yuzaga chiqadi.

Yuridik diskursda presuppozitsiya va implikatura masalalarini maxsus o'rgangan olimlardan biri Piter Tiersmadir. Tiersma huquqiy tilni institutsional diskurs sifatida tahlil qilib, yuridik terminlar ko'pincha presuppozitsion bilimlarga tayangan holda qo'llanilishini ko'rsatadi. Masalan, "prosecution", "liability", "sanction" kabi terminlar jinoyat sodir etilgani yoki huquqiy norma buzilgani haqidagi presuppozitsiyani o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, matbuot diskursida bu terminlar implikatura orqali baholovchi va tanqidiy ma'nolarni ham shakllantiradi.

Ingliz huquqiy diskursini ommaviy axborot vositalari kontekstida tahlil qilgan Norman Fairclough yuridik terminlarning ideologik implikaturaga ega ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, matbuotda qo'llaniladigan huquqiy terminlar ijtimoiy hokimiyat va nazorat mexanizmlarini yashirin tarzda mustahkamlaydi. Bu jarayonda presuppozitsiya orqali "normallik", implikatura orqali esa "ayblash" yoki "tanqid" shakllanadi (Fairclough N., *Language and Power*, Buyuk Britaniya, London, Longman, 1989, 109–115-betlar).

O'zbek tilshunosligida yuridik terminlarning pragmatik xususiyatlari masalasiga murojaat qilgan olimlardan S. Ko'chimov yuridik terminlar ma'lum bir diskursida presuppozitsion bilimlarni faollashtirishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, "javobgarlik", "huquqbuzarlik", "jinoiy ish" kabi terminlar o'quvchining huquqiy ongiga tayanadi va qonun buzilganligi haqidagi axborotni oldindan mavjud bilim sifatida qabul qilishni talab qiladi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, presuppozitsiya va implikatura nazariyalari yuridik terminlarning matbuot diskursidagi pragmatik xususiyatlarini ochib berishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu tadqiqot aynan shu nazariy qarashlarga tayangan holda o'zbek va ingliz matbuotida yuridik terminlarning yashirin ma'no qatlamlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda yuridik terminlarning presuppozitsion va implikatura xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Asosiy metod sifatida diskursiv-pragmatik tahlil tanlandi, chunki ushbu usul til birliklarining nafaqat leksik-semantik, balki kontekstga bog'liq yashirin ma'nolarini aniqlash imkonini beradi. Diskursiv tahlil yuridik terminlarning matbuot diskursidagi kommunikativ vazifasini ochib berishga xizmat qildi. Tadqiqotda, shuningdek, kontekstual tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod yordamida yuridik terminlar alohida birlik sifatida emas, balki ularning real nutqiy muhitdagi qo'llanilishi asosida tahlil qilindi. Bu yondashuv presuppozitsiya va implikaturaning aynan qaysi kontekstda yuzaga kelishini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy metod esa o'zbek va ingliz matbuot diskursida qo'llanilgan yuridik terminlarning pragmatik xususiyatlarini solishtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek matbuotidan "Inson va qonun" gazetasi, ingliz matbuotidan esa "Law Society Gazette" nashrlarida chop etilgan huquqiy mazmundagi maqolalar tanlab olindi. Ushbu manbalardan yuridik terminlar ajratilib, ularning presuppozitsion bilimlarga tayanishi hamda implikatura orqali hosil qilgan yashirin ma'nolari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz matbuot diskursida qo'llanilayotgan yuridik terminlar nafaqat leksik-semantik, balki muhim pragmatik yuklamaga ham ega. Xususan, presuppozitsiya va implikatura hodisalari yuridik terminlarning matn ichidagi funksiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Gazeta

diskursi keng auditoriyaga mo'ljallangan bo'lgani sababli, mualliflar ko'pincha ochiq bayondan ko'ra, yashirin ma'no va fon bilimlarga tayanishga intiladi. O'zbek matbuoti materiallari tahlili. "Inson va qonun" gazetasi materiallari asosida tuzilgan quyidagi jadval o'zbek matbuotida yuridik terminlarning presuppozitsion hamda implikatura xususiyatlarini ochib berish uchun yaratilgan.

Jadval 1. O'zbek matbuotida yuridik terminlarning presuppozitsion va implikatura xususiyatlari

Termin	Kontekst	Presuppozitsiya	Implikatura
Intizomiy jazo	"Hisobchiga intizomiy jazo chorasi qo'llanildi" - <i>Korxonada o'tkazilgan xizmat tekshiruv natijasida hisobchiga mehnat intizomini buzganligi sababli intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.</i>	Qonun buzilgan	Ayb isbotlangan
himoya orderi	"Himoya orderi rasmiylashtiriladi" - <i>Oilaviy zo'ravonlik holati aniqlangach, jabrlanuvchini himoya qilish maqsadida unga nisbatan himoya orderi rasmiylashtiriladi.</i>	Zo'ravonlik mavjud	Davlat aralashuvi zarur
subsidia	"Ishga olganlarga subsidia berildi" - <i>Bandlikni ta'minlash dasturi doirasida yangi ish o'rinlari yaratgan tadbirkorlarga davlat tomonidan subsidia berildi.</i>	Davlat qo'llab-quvvatlaydi	Ijtimoiy rag'bat
qonun doirasida	"Qonun doirasida o'rganildi" - <i>Mazkur holat yuzasidan kelib tushgan murojaat vakolatli organlar tomonidan qonun doirasida o'rganildi va tegishli xulosa chiqarildi.</i>	Tekshiruv qonuniy	Adolat ta'minlandi
jinoiy javobgarlik	"Jinoiy javobgarlik belgilangan" - <i>Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va aybdor shaxs sud tartibida javob beradi.</i>	Jinoyat sodir etilgan	Jazolanish muqarrar

Jadvaldagi misollar shuni ko'rsatadiki, o'zbek matbuotida presuppozitsiya hodisasi ustunlik qiladi. Masalan, "javobgarlikka tortildi" termini qo'llanganda, matnda bevosita "qonun buzildi" deyilmasa ham, bu holat o'quvchi tomonidan oldindan ma'lum axborot sifatida qabul qilinadi. Bu presuppozitsiya huquqiy normalar mavjudligi va ularning buzilishi haqidagi umumiy bilimlarga tayanadi. "Himoya orderi" termini esa oilaviy yoki ijtimoiy zo'ravonlik mavjudligi haqidagi presuppozitsiyani faollashtiradi. Shu bilan birga, bu termin implikatura orqali davlatning majburiy aralashuvi zarurligini anglatadi. Bunday qo'llanish matbuot diskursida huquqiy institutlarning ijtimoiy himoya funksiyasini kuchaytirib ko'rsatadi. "Subsidia" termini presuppozitsiya sifatida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash siyosati mavjudligini nazarda tutadi. Implikatura darajasida esa ushbu yordam rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bu holat o'zbek matbuotiga xos bo'lgan ijobiy va normativ diskursni namoyon etadi. "Qonun doirasida" birikmasi tekshiruvning qonuniyligi presuppozitsiyasini hosil qiladi. Implikatura esa tekshiruv natijalarining adolatli va shaffof ekanini anglatadi. Bu yerda muallif o'quvchini davlat organlari faoliyatiga ishonch

ruhida yo'naltiradi. Umuman olganda, o'zbek matbuotida yuridik terminlar orqali presuppozitsion bilimlar ustuvor bo'lib, o'quvchi huquqiy jihatdan ma'lum darajada xabardor subyekt sifatida qabul qilinadi. Implikatura esa ko'proq tasdiqlovchi va normativ xarakterga ega. Ingliz matbuoti materiali tahlili. "Law Society Gazette" matbuotidan olingan materiallar asosida yaratilgan ushbu jadval ingliz gazeta matnlarida yuridik terminlarning qanday presuppozitsiya va implikatura xususiyatlarni anglatishini ko'rishga hizmat qiladi.

Jadval 2. Ingliz matbuotida yuridik terminlarning presuppozitsion va implikatura xususiyatlari

Termin	Kontekst	Presuppozitsiya	Implikatura
prosecution	"criminal prosecution" - <i>The authorities have initiated criminal prosecution against the suspect following the investigation.</i>	jinoyat sodir etilgan	aybning mavjudligi deyarli shubhasiz
sanction	"financial sanctions imposed" - <i>The regulatory body has imposed financial sanctions on the company for breaching compliance rules.</i>	qoida buzilgan	buzilishning jiddiyligi va ijtimoiy xavfliligi kuchaytirilgan
inquiry	"public inquiry revealed" - <i>The public inquiry revealed serious procedural shortcomings within the institution.</i>	muammo mavjudligi	tizimli yoki institutsional nosozlikka ishora
fraud	"risk of prosecution for fraud" - <i>The executive faces a significant risk of prosecution for fraud after the audit uncovered irregular transactions.</i>	firibgarlik ehtimoli mavjud	Axloqiy qoralash, jiddiy ayblovlar va obro'ga putur yetish
injunction	"privacy injunctions are rare" - <i>Privacy injunctions are rare in such cases, as courts tend to balance individual rights against public interest.</i>	Huquqiy tahdid mavjudligi	shaxs va jamoatchilik o'rtasida kuchlar nomutanosibligi mavjud

Ingliz matbuotida yuridik terminlar orqali hosil bo'ladigan implikatura presuppozitsiyaga nisbatan faolroq namoyon bo'ladi. Masalan, "criminal prosecution" birikmasi jinoyat sodir etilgani haqidagi presuppozitsiyani o'z ichiga olsa-da, implikatura orqali aybning mavjudligi deyarli shubhasiz sifatida talqin qilinadi. "Sanction" termini presuppozitsiya sifatida qoida buzilganini anglatadi, ammo implikatura darajasida bu buzilishning jiddiyligi va ijtimoiy xavfliligi kuchaytiriladi. Bu ingliz matbuotiga xos tanqidiy va baholovchi diskursni ko'rsatadi. "Inquiry" termini orqali muammo mavjudligi presuppozitsiya qilinadi, implikatura esa tizimli yoki institutsional nosozlikka ishora qiladi. Bu holat ingliz matbuotida hokimiyat va institutlarga nisbatan tanqidiy pozitsiya kuchli ekanini ko'rsatadi. Umuman, ingliz matbuotida yuridik terminlar implikatura orqali muallifning yashirin bahosi va tanqidini yetkazish vositasi sifatida faol ishlatiladi. O'quvchi esa faqat huquqiy bilimga ega shaxs emas, balki tanqidiy fikrlashga undaladigan subyekt sifatida ko'riladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz matbuot diskursida yuridik terminlar muhim pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali nafaqat huquqiy axborot yetkaziladi, balki presuppozitsiya va implikatura yordamida yashirin ma'no, baholash va muallif pozitsiyasi shakllantiriladi. O'zbek matbuotida yuridik terminlar asosan presuppozitsiyaga tayangan holda qo'llaniladi. Bu holat o'quvchini huquqiy bilimga ega va davlat-huquq tizimiga nisbatan ishonch bildiruvchi subyekt sifatida tasavvur etishga asoslanadi. Implikatura ko'proq tasdiqlovchi va normativ xarakterga ega bo'lib, huquqiy tartib va adolat g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ingliz matbuotida esa implikatura ustuvor bo'lib, yuridik terminlar orqali tanqidiy, baholovchi va ba'zan keskin munosabat ifodalanadi. Bu ingliz jurnalistikasiga xos bo'lgan ochiq muhokama va institutlarni savol ostiga qo'yish an'anasini aks ettiradi. Presuppozitsiya esa ko'proq implikatura uchun fon vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy matbuot an'analari yuridik terminlarning pragmatik xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kelgusida yuridik terminlarning presuppozitsion va implikatura xususiyatlarini boshqa diskurs turlari, masalan, sud nutqi yoki parlament muhokamalari doirasida ham o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv huquqiy tilning kommunikativ imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Grice H.P. Logic and Conversation. Harvard University Press, 1975.
2. Tiersma P. Legal Language. Chicago, 1999.
3. G'ulomova G.Y. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqlool davri taraqqiyoti. Diss. Toshkent, 2004.
4. Jumaniyozova N.A. O'zbek tilida yuridik diskurs nominativ birliklari. Journal of Word Art, 2022.
5. Inson va qonun gazetasi, 2024-yil, №21.
6. Law Society Gazette, 12 January 2024.